

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL DARSLAR OLIB BORISH TEKNOLOGIYASI

Shodiyev Faxriddin

*Uzbekistan-Finland PI Head of the Department of Theory of Primary Education,
associate professor*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflardada interfaol darslar olib borish texnologiyasi borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, interfaol darslar, ta'lim mazmuni, ijodkorlik, interfaollik, muammoli ta'lim, kreativ ta'lim, pedagogik mahorat, globallashuv, didaktik texnologiya.*

O'qitish jarayonida samarali, sifatli natijaga erishmoq uchun oldindan tarbiyalanuvchilarga qanday kompetensiyalar singdirilishini oydinlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi(6-11). Zotan, global jarayonlar an'anaviy saboqlarni inkor etmoqda. Shuning uchun ham "O'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir"(5-36). Darhaqiqat, dars jarayonini tashkil etishda interfaol usullardan foydalanilsa o'quvchilarga qulay ijodiy fikr yuritish uchun muhit yaratiladi. Chunki "O'qituvchi interfaol dars jarayonida o'quvchining diqqat markazida bo'ladi va uning barcha aytgan so'zlari qanday bo'lsa shundayligicha ularga etib boradi"(1-9). Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beradi. O'zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug'diriladi. Yechimi kutilayotgan masalalarni hamkorlik va hamjihatlikda muhokama etadilar, yechim topadilar, vaziyatdan chiqishda ham hamijodkorlikda yechadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir-birlarini tushunish ularda qiziqish paydo qilib, vaqt o'tganini bilmay qoladilar. Har bir ishtirokchi ta'lim mazmunini mualliflaridek his qiladilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga va sifat-samaradorlikka erishadilar. Shuning uchun ham bu usulni ayrim manbalarda hamijodkorlik pedagogikasi deb ham ta'kidlashadilar.

Interfaol usul nima va u nimani anglatadi? Interfaol usullar o'quvchilarning o'zaro muloqat va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiradi. Interaktiv ingliz so'zidan olingan bo'lib, "Interakt", ya'ni Inter - bu "o'zaro", akt - harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi.

Interfaollik asosida tashkil etilgan darslar o'quvchini erkin fikr yuritishga va axborotlarni faollikda hal etishga o'rgatadi(4-17). Guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, o'z fikrlarini yozma bayon etish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy metodlardan

voz kechish degani emas, balki dars mazmunini o'zaro faollikda, hamkor va hamijodkorlikda hal etishni tashkil eta olishdir.

Interfaol ta'limni quyidagi metodlari mavjud:

- Muammoli ta'lim;
- Loyihali ta'lim;
- O'yin orqali kechuvchi ta'lim;
- Kreativ ta'lim;
- Evristik ta'lim;
- AKT ta'limlaridir.

Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi – o'quvchilarning o'zaro muloqatlari asosida kechadi.

Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqatlarida sodir bo'ladi.

Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritishga muhit yaratishdir.

O'quvchining intellektual salohiyatini, ichki imkoniyatlarini namoyon etish orqali ta'limda sifat – samaradorlikni ta'min etish demakdir.

Interfaollikda tashkil etilgan darslar shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmay, ya'ni ular eshitgan, o'qigan, ko'rgan, bilgan fikr – mulohazalarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bu dars jarayonida samimiylilikni ta'minlaydi, bilim olishga havas, qiziqish ortadi, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi.

Interfaol darslar tashkil etilganda o'quv jarayoni yakka tartibda, juft holatda, kichik guruhlarda ishlashga o'rganadilar.

Bunday holda tashkil etilgan mashg'ulotlar izlanishga asoslangan rejalar, rolli o'yinlar avvaldan rejalashtirish, algoritmlash, modullashtirish, darsliklar bilan ishlash, turli hujjatlar bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy iishlashlardan foydalanish mumkin.

Interfaol darslarni tashkil etish bosqichlari. O'quv predmeti mavzusini va mazmunini tanlash;

- Darsning o'quv mavzusi yuzasidan yagona umummaqsadni belgilash;
- Darsning o'quv mazmunini ishlab chiqishda beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni belgilash;
- O'quvchi tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarini ifoda etish;
- Darsning shakli, metodi, vositalarini tanlash;
- Tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchi tomonidan sarflanadigan vaqt birligini hisobga olish;
- Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini yaratish;

- Nazorat olib borish uchun testlar, savollar ishlab chiqish;
- Dars jarayonini olib borish ketma-ketligi va yakunlash mexanizmini yaratish.

Interfaol asosida tashkil etilgan ta'limda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining o'zgarishi. O'qituvchi bilimni tashuvchi, etkazuvchi emas, o'quvchini o'qish, bilim olishda yordamchi, maslahatchi, tashkilotchi rahbarga aylanadi;

- Uning uchun o'qituvchi - algaritmlash, modullashtirish, loyihalash, hamijodkorlikda fikrlash sharoitida ish yuritishga o'rganmog'i kerak;

- O'qituvchi o'qitibgina qolmay, o'qishga o'rgatishi kerak, bilimni berishgina emas, uni manbalardan ola bilishga, ikki tomonlama faol ish yuritishga odatlanishi kerak;

- O'quvchini o'zini o'zi o'qitish, faol ishlashga, yakka, juft, kichik guruhlarda ishlashga muhit yaratish, o'quv jarayoniga individual yondashish kerak. Ana shunda o'quv mazmunini o'zlashtirish kafolatlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimimizda interfaol faoliyatda ish olib borishni yo'lga qo'ysak:

- Yosh o'qituvchilarni yangilikka intiluvchanligi, yangi metodlarni dars jarayonida qo'llash ko'nikma, malakalari shakllanadi;

- Uzluksiz ravishda mashg'ulotlarda, ijodiy guruhlarda, o'z ustida mustaqil ishlash orqali interfaol usulda ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

- Bunday muhitda ish yuritganda o'quvchilar o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. U esa ta'limda sifat va samaradorlikni oshiradi hamda yosh avlodni yanada komillikka undaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda mukammal ishlangan dastur, takomillashtirilgan ish reja va pedagogik mahorat asosida o'tkaziladigan interfaol darslarda ta'lim jarayoni yangi mazmun va shaklda bo'lishi uchun o'quvchi bilim darajasi, idroki, fikrlash qobiliyati, qiziqishi va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi pedagogic texnologiyani joriy etish va shu asosda komil insonni tarbiyalash o'qituvchining eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki pedagogik texnologiya o'quv omillarini yaratishga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni tafakkur dunyosini kengaytirishga, tezkorlikka, o'quv, o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga, amaliy harakatga, yangi g'oyalar olamiga jalb etadi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinflarda interfaol darslar olib borish va uni global jarayonda didaktik texnologiyasini takomillashtirib borish asosiy burchlarimizdandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyorov M., Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari(interfaol darslar). -T.: FXIN, 2007-yil.
2. Ziyomammedov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. -T.: Lider Press, 2009-yil.

3. Tojiev M., Ziyomammedov B. Milliy pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. –T.: Mumtoz so'z, 2010-yil.
4. Ishmammedov R., Yuldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: Nihol, 2013-yil.
5. Gafforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'qituvchi kitobi. –T.: Tafakkur, 2011-yil.
6. Qodirov V., Umarova Y. Ona tilidan fanga oid umumiy kompetensiyalar tizimida pragmatika masalalari // Til va adabiyot ta'limi jurnali, -T.: 2020 – yil, 5-son.
7. Shodiyev, F. (2023). ALISHER NAVOIY TIMSOLINI ERKIN VOHIDOV IJODIDAGI TALQINI TADQIQI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 522-524.
8. Tshaevich, S. F. (2022). The Role of Children's Literature in the Formation of Professional Competence. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 235-240.
9. Norkobilovna, J. S., Sadikovich, K. N., Tshaevich, S. F., Gulmurodovna, S. L., & AkramIkromovich, S. (2021). Cultural and Historical Prerequisites for the Development of the Innovative Potential of the Subject of Creativity. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2982-2986.
10. Fakhriddin, S., Abdimurat, N., Gulbakhor, R., & Oybek, G. (2023). Interpretation of History and Historical Truth in the Samples of Alisher Navoi's Hasbi Hazal. Journal of Advanced Zoology, 44.
11. Shodiyev, F., & Bahramova, M. (2023, June). Technology For Conducting Interactive Lessons. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 16-18).
12. Tshaevich, S. F. Interactive Technology in Primary Education. International Journal on Integrated Education, 3(10), 76-77.
13. Shodiyev, F., Saidullayeva, S., Abdullayeva, Z., & Tirkasheva, M. (2023). Children's Literature in the Formation of Professional Competence Position. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(6), 73-78.
14. Shodiyev, F., Kiyamova, S., Karshyeva, G., & Muradullayeva, D. (2023). The Technology of Preparation of the Future Primary School Teacher in the Global Process. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 4(6), 108-111.
15. Tshaevich, S. F. (2021). Essence of children's literature in the formation of professional competence.
16. Tshaevich, S. F. (2021). Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 542-550.
17. Shodiyev, F. (2024). TRAINING OF FUTURE INNOVATIVE AND CREATIVE THINKING PRIMARY SCHOOL TEACHER. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 4(37), 189-195.

18. Drobchenko, N. V., & Fakhriddinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS' CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING.
19. Fakhriddinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
20. Fakhriddinov, M. The impact of modern technology on education. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
21. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). CHIZMACHILIK FANI ORQALI TALABALARNING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI O'STIRISH. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(23), 41-44.
22. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... *Научный Фокус*, 1(7), 190-193.
23. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). KOMPYUTER VA UNING GLOBAL TA'LIMDAGI KREATIV O'RNI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 514-521.
24. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR-BIRIDAN FARQLANISHI. *Научный Фокус*, 1(7), 46-52. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/12334>
25. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEKNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(6), 56-59. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/8866>
26. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 16-18. Retrieved from <https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD/article/view/474>
27. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). CHIZMACHILIK FANI SIR-ASRORLARINI O'QUVCHILARNING ONGIGA YETKAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 142-148.
28. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS IN THE SPHERE OF DRAWING DETAILS: ENHANCING CREATIVITY AND PRECISION. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 196-199.
29. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 43-46.
30. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. *Научный Фокус*, 1(10), 56-58. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/14785>
31. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(26), 152-155.

32. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PIRLS – (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY) - XALQARO O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH TIZIMI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 785-790.

33. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA – (PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT) –XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 220-225.

34. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA KESIMLAR VA ULARNI O`RGATISH METODIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 67-75.

35. Shodiyev, F. (2023). TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH TECHNOLOGIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 195-199.

36. Shodiyev, F. (2023). XALQ MAQOLLARIDAN FANLARARO FOYDALANISH INTEGRATSIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 195-199.